

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent shahar statistika
boshqarmasi boshlig‘i

L.T. Mirsoatov

“ 4 ” aprel 2025-yil.

Uchtepa tumani statistika bo‘limi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Uchtepa tumani statistika bo‘limining (keyingi o‘rinlarda - bo‘lim) maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi “Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-75-son qarori bilan tashkil etilgan va-O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda - Statistika qo‘mitasi) yagona tizimiga kiruvchi Toshkent shahar statistika boshqarmasiga (keyingi o‘rinlarda – Boshqarma deb ataladi) bo‘ysunadi.

Bo‘lim mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqildirlar va bevosita boshqarmaga bo‘ysunadi;

3. Bo‘lim mahalliy davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yuridik shaxslar va fuqarolarning rasmiy statistika ma‘lumotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi, yaxlit ilg‘or statistika ma‘lumotlari tizimining faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan rasmiy statistika sohasidagi yagona siyosatni amalga oshirishda ishtirok etadi.

4. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizom, Statistika qo‘mitasining buyruqlari, qarorlari, topshiriqlari va ko‘rsatmalariga, Boshqarmaning buyruqlari va ko‘rsatmalariga, mazkur Nizomga, shuningdek boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Bo‘lim o‘z faoliyatini boshqa mahalliy davlat organlari va yuridik shaxslar bilan o‘zaro hamkorlikda, shu jumladan idoralararo elektron hamkorlik qilishdan foydalangan holda amalga oshiradi.

6. Bo‘lim o‘z faoliyatini har yili O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasining Statistika Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturiga asosan

Statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq tashkil qiladi.

7. Bo'limning qonuniy faoliyatiga davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning mansabdor shaxslarining har qanday aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. Bo'lim Toshkent shahar statistika boshqarmasining yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, bo'limga kelib tushadigan va chiqib ketadigan hujjatlar va murojaatlarni ro'yxatga olish shtamplariga ega.

9. Bo'lim quyidagi manzilda joylashgan: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Farhod ko'chasi, 21-uy.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

rasmiy statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirish va rasmiy statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash;

ijtimoiy-iqtisodiy va demografik hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish;

davlat organlarini, yuridik shaxslarni va aholini tuman hududi bo'yicha statistika ma'lumotlari bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish;

sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning hududning rivojlanishini to'liq tavsiflovchi va iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining rivojlanishidagi, shuningdek, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq ochib beruvchi ko'rsatkichlarning keng ro'yxatidan erkin foydalanishni ta'minlash;

ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlariga o'z vaqtida munosabat bildirish, yuklangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun xodimlarning mas'uliyatlarini oshirish;

ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirish.

11. Bo'lim o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) *rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish, statistika uslubiyatlari va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish sohasida:*

Statistika dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi;

statistika organlari tahliliy salohiyatini mustahkamlash bo'yicha zarur choralarni ko'radi;

rasmiy statistika tamoyillariga rioya etilishini va xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan statistik metodologiyaning yagonaligini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning statistika ma'lumotlariga bo'lgan talablaridan kelib chiqqan holda davlat statistika kuzatuvlari shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va Statistika qo'mitasiga kiritadi;

hisobot taqdim etuvchi subyektlarni tasdiqlangan statistika hisoboti shakllari to'g'risida xabardor qiladi hamda ularni elektron shaklda to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar beradi;

statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasiga qat'iy amal qilgan holda o'tkazilishini ta'minlaydi;

b) foydalanuvchilar ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik hamda boshqa xususiyatga ega dolzarb statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularni qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash jarayonlarini tashkil etish sohasida:

Statistika dasturining bajarilishini ta'minlaydi;

tuman hududi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan Statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan davlat statistika kuzatuvlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini tashkil etadi;

tuman hududini rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishining borishini o'z vaqtida va ishonchli statistik hisobini ta'minlaydi;

davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda, zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ishni, uy xo'jaliklarini statistik kuzatishni, ro'yxatdan o'tkazishlarni, bir martalik hisobga olishlarni, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni Statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar va metodologiyaga qat'iy amal qilgan holda tashkil etadi va ta'minlaydi;

tuman hududi bo'yicha eng muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning dastlabki statistik tahlilini olib boradi;

statistika, hisobot ko'rsatkichlarining va o'tkazilgan tanlanma kuzatuvlar natijalarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini, statistik axborotlarning qulayligi, ochiq-oydinligi va oshkoraligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi;

statistika ishlarini tashkil etishning statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga davlat organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining har qanday aralashuvini istisno qiladigan tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

respondentlarga elektron hujjat shaklidagi statistika kuzatuvlari shakllarini tuzish va taqdim etish uchun maxsus dasturiy ta'minotdan bepul foydalanish imkonini beradi;

respondentlarga ishonchli statistika hisobotlarini taqdim etishda har tomonlama ko'maklashadi, statistik ma'lumotlarni taqdim etish sohasida huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini amalga oshiradi, statistik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy usullarini qo'llanishini ta'minlaydi;

Boshqarma veb-saytiga ma'lumotlarni taqdim etadi va yangilab borilishiga ko'maklashadi, foydalanuvchilarga undan va Statistika qo'mitasining axborot resurslaridan foydalanishga doir tushuntirishlar beradi;

olingan statistika ma'lumotlarining maxfiyligini, birlamchi hisobot ma'lumotlaridan yuridik shaxslarning faoliyatini, boshqa xususiyatlarini yoki miqdor ko'rsatkichlarini rasmiy tasdiqlash maqsadida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni, davlat sirlariga ega bo'lgan statistika ma'lumotlarining himoya qilinishini ta'minlaydi;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq, faoliyati jarayonida yuzaga kelgan arxiv hujjatlarini komplektlash, hisobga olish va boshqarmada saqlash uchun topshirish ishlarini amalga oshiradi;

o'z vakolatlari doirasida bo'lim faoliyati jarayonida olingan xizmat, bank, tijorat sirlarini va boshqa maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni saqlash va himoyalashning tegishli tartibini ta'minlaydi;

foydalanuvchilarning keng ommasi uchun hudud bo'yicha statistika ma'lumotlarning maksimal darajada ochiq-oydinligi va oshkoraligini ta'minlaydi;

hududning rivojlanishini tizimli tahlil qilish bo'yicha boshqa hududiy boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan yaqindan hamkorlik qiladi;

mahalliy ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini tavsiflovchi kompleks tahliliy ma'ruzalar, press-relizlar va maqolalar tayyorlaydi, tarqatilayotgan statistik ma'lumotlarga tahliliy va ma'lumotnoma materiallar majburiy tartibda ilova qilinishini ta'minlaydi, ushbu materiallarni mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) berib borilishini tashkil etadi;

milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari hamda hududlarning rivojlanishini, islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnologik qayta jihozlash, xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning amalga oshirilishini, aholi turmush darajasidagi sifat o'zgarishlarini yanada to'liq aks ettiradigan statistika ma'lumotlarni tezkor va sifatli tayyorlashda ishtirok etadi;

ochiq statistika ma'lumotlarni boshqarma rasmiy veb-saytida joylashtirishga taqdim etadi va barcha foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlardan foydalanish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydi;

Bo'limning ma'lumotlari asosida mahalliy ommaviy axborot vositalarida (mahalliy telekanallarda) tahliliy lavhalar, diagrammalar va grafiklarni keng namoyish qilish yo'li bilan alohida statistik ko'rsatkichlar to'g'risida aholini xabardor qilish choralarini ko'radi;

statistika kuzatuvlari va rasmiy statistika ma'lumotlari masalalari bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib boradi;

shartnoma asosida, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, tahliliy, axborot, noshirlik xizmatlarini va Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni ko'rsatadi;

d) xalqaro darajada umumqabul qilingan rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari asosida sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan ta'sirchan mexanizmlarni amaliyotda qo'llash sohasida:

rasmiy statistika ma'lumotlari rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etgan holda tayyorlanishi va tarqatilishini tashkil etishda ishtirok etadi;

sifatli va ishonchli statistika ma'lumotlarini shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganadi va ularni rasmiy statistika sohasiga joriy etish bo'yicha o'z takliflarini beradi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirish yo'li bilan xolisona, sifatli va talab yuqori bo'lgan hisobot ma'lumotlari tayyorlanishini, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligi bosqichma-bosqich oshirilishini hududiy darajada muvofiqlashtiradi;

ochiq statistika ma'lumotlarini statistika organlari, rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, boshqa davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning internet resurslari hamda nashrlarida joylashtirish yo'li bilan tarqatadi va barcha foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlaridan keng foydalanish uchun teng imkoniyatlarni yaratadi;

milliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun rasmiy statistika ma'lumotlarining maksimal darajada ochiqligi va shaffofligini ta'minlaydi;

rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, statistika ma'lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash maqsadida foydalanuvchilar o'rtasida taqdim etilayotgan statistika ma'lumotlaridan qoniqish darajasini baholash bo'yicha so'rovlar o'tkazadi;

rasmiy statistika ma'lumotlarining manbalari, ularni tayyorlash usullari, ishonchliligi, shaffofligi, oshkoraligi va sifati to'g'risida foydalanuvchilarni metama'lumotlar yordamida xabardor qilib boradi.

e) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri va statistika ishlarini tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistik klassifikatsiyalar tizimini yuritishda ishtirok etish sohasida:

korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrida yuridik shaxslarni to'liq hisobga olishni va ular faoliyati holatidagi o'zgarishlarni monitoring qilishni ta'minlaydi;

yagona tasniflash tizimi asosida yuridik shaxslarni hisobga olish va identifikatsiyalashni, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri samarali faoliyat ko'rsatishini hamda yangilab borilishini ta'minlaydi;

o'zaro mos axborot tizimlari va resurslarini yaratish uchun asos sifatida statistik tasniflagichlardan foydalanishni ta'minlaydi;

internet resurslariga joylashtirish yo'li bilan statistik tasniflagichlar va ularga kiritilayotgan o'zgartirishlar to'g'risida foydalanuvchilarni xabardor qiladi;

f) statistika ma'lumotlarini tayyorlash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, o'z axborot tizimlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash sohasida:

statistika axborotlarining tezkorlik bilan uzatilishini va qayta ishlanishini ta'minlovchi yangi axborot-kommunikatsiya resurslari va texnologiyalarini statistika organlari faoliyatiga joriy etishda ishtirok etadi;

axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot almashishning himoyalangan elektron ko'rinishiga bosqichma-bosqich o'tish, xavflarga qarshi tizimning samarali ishlashini ta'minlash uchun normativ-huquqiy va tashkiliy-texnik bazani takomillashtirish bo'yicha Statistika qo'mitasi tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

statistika organlari axborot resurslari va tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash, davlat statistikasi axborot-hisoblash tizimini ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilish bo'yicha zarur choralarni ko'radi;

statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida davlat siyosatini amalga oshirilishini va "Elektron hukumat" tizimini joriy etilishini ta'minlaydi;

g) milliy statistika tizimidagi kadrlar salohiyatini oshirish va statistik tadqiqotlarni rivojlantirish borasida faol siyosatni yuritish sohasida:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida bo'lim ishini takomillashtirish bo'yicha amaliy choralarni ko'radi;

statistika tizimida kadrlarining malakasi oshirilishini va qayta tayyorlanishini tizimli asosda ta'minlaydi;

kadrlar malakasini oshirish jarayonlariga videokonferensaloqa tizimi va raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda masofaviy o'qitish tizimini samarali tashkil etadi;

statistika organlari faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash, xodimlarning samarali mehnat qilishlari, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muhofaza qilish uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish choralari ko'radi;

bo'lim xodimlari uchun lavozim va malaka darajalariga ko'tarilishda ularning mehnat faoliyati, irodaviy va axloqiy sifatleri, iqtidori va ko'nikmalarini xolisona baholashga asoslangan teng imkoniyatlar yaratadi;

bo'lim xodimlarida yuksak kasbiy odob-axloqni, korrupsiyaga qarshi turish madaniyatini va unga toqat qilib bo'lmaydigan munosabatni shakllantirish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'radi;

rasmiy statistika sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida respondentlar bilan samarali hamkorlik qilishni tashkil etadi, ular uchun maksimal qulay shart-sharoitlarni yaratadi;

statistika faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni tayyorlash jarayonlarida tadbirkorlik subyektlari hamda fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarni qabul qilishni tashkil qiladi, jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og‘zaki murojaatlarini o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishini, ular bo‘yicha qarorlar qabul qilinishini va qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda murojaat egalarga javoblar yuborilishini ta‘minlaydi;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari tomonidan rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari buzilishini oldini olishga qaratilgan ogohlantiruvchi va profilaktika xususiyatiga ega choralarni, shuningdek, aniqlangan qonunbuzarliklar oqibatlarini bartaraf etish choralari amalga oshiradi.

h) ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ularning yuqori darajada amalga oshirilishini ta‘minlash sohasida:

ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni hududiy darajada muvofiqlashtiradi;

ro‘yxatga olish natijalari milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun e‘lon qilinishini ta‘minlaydi;

ro‘yxatga olish varaqlari va boshqa ro‘yxatga olish hujjatlarining saqlanishi (shu jumladan, vaqtincha saqlanishi), yo‘q qilinishi tartibini belgilaydi va ularning bajarilishini ta‘minlaydi;

ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risida aholini xabardor qilishga doir ishlarni amalga oshiradi;

bo‘lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

3-bob. Bo‘limning huquqlari va javobgarligi

12. Bo‘lim o‘z vakolati doirasida hamda o‘ziga yuklangan vazifalar, funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan, boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda – ularning vakolatxonalari va filiallaridan) statistika hisobotini belgilangan tartibda olish hamda undan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, davlat tashkilotlaridan statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so‘rash va olish;

yuridik shaxslarni va yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlardan, shuningdek, yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning registrlari va axborot bazalarini shakllantiruvchi va yurituvchi davlat organlari va ularning idoraviy mansub tashkilotlaridan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va faollashtirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni olish;

yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining statistika kuzatuvlarini Statistika qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllar

va metodologiya bo'yicha olib borish va olingan ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek rasmiy statistika axborotlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

rasmiy statistika ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish va talqin qilish holatlarini ko'rib chiqish, ular bo'yicha tushuntirishlar berish;

olinayotgan statistika ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini tahlildan o'tkazish;

statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va boshqarma bilan kelishilgan holda hudud bo'yicha yig'ma statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzayotgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralari ko'rish;

davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy jarimalardan tushumlar hisobiga boshqarmaning maxsus jamg'armasini shakllantirishda ishtirok etish va undan belgilangan tartibda foydalanish;

Boshqarma bilan kelishilgan holda statistika masalalari bo'yicha xalqaro seminarlar va kengashlar ishida qatnashish;

shartnoma asosida statistik, tahliliy, axborot xizmatlari va Statistika dasturidan tashqari boshqa xizmatlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rsatish;

Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

13. Bo'lim, zarurat bo'lganda, boshqa davlat organlari va idoralar bilan birga qo'shma hujjatlar qabul qilishi mumkin.

14. Bo'lim va mansabdor shaxsi ularga yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishi uchun javob beradi.

Bo'limning mansabdor shaxsi harakatlari ustidan shikoyat qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

15. Bo'lim rahbarlari va xodimlari rasmiy statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik, tarqatilishi cheklangan statistika ma'lumotlari, statistik axborotlar va (yoki) ma'lumotlar bazasini yo'qotganlik, sotganlik, berganlik va boshqa noqonuniy oshkor etganlik uchun, shuningdek statistika ma'lumotlarini yashirganlik va buzib ko'rsatganlik uchun, yoxud ko'rsatib o'tilgan huquqqa zid qilmishlarga ko'maklashganlik uchun qonunga muvofiq javob beradi.

4-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

16. Bo'limga Statistika qo'mitasi bilan kelishilgan holda Toshkent shahar statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.

17. Bo'lim boshlig'i:

Bo'limning faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

davlat organlarida va boshqa tashkilotlarda bo'limni ifodalaydi yoxud bo'lim nomidan bo'lim xodimlariga ishonchnoma va (yoki) vakolatlar beradi;

Bo'limda huquqiy madaniyatni oshirishga va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha profilaktika ishlarini olib boradi va boshqa choralarni ko'radi;

Bo'lim boshlig'i bo'lim xodimlarining vakolatlari, majburiyatlari va javobgarligi darajasini belgilaydi;

o'z vakolatlari doirasida hudud statistika organlarining barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar beradi;

bo'lim xodimlarni rag'batlantirish va ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash bo'yicha takliflar kiritadi;

kadrlar zaxirasini shakllantirish, shuningdek xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini tizimli asosda tashkil qilishga ko'maklashadi;

Bo'limga yuklangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uchun amaldagi qonunchilik hujjatlari doirasida zarur choralar ko'radi;

Bo'limning yig'ilishlarida raislik qiladi.

Bo'lim boshlig'i qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

5-bob. Bo'lim faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta'minoti

18. Bo'limning mol-mulkini foydalanish uchun ajratilgan asosiy vositalar, shuningdek qiymati boshqarma balansida aks ettiriladigan boshqa boyliklar tashkil etadi.

19. Bo'limni moliyalashtirish va uning moddiy-texnika ta'minoti Statistika dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Bo'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, xodimlarning kasb mahoratini, o'z lavozim vazifalarini sifatli bajarganligini, ijodiy faolligini va tashabbuskorligini rag'batlantirish boshqarma tomonidan amalga oshiriladi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

20. Bo'limni qayta tashkil etish, qo'shib yuborish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.